

## STIVEN KINGNING “THE SHINING” VA “DOCTOR SLEEP” ROMANLARIDA MAGIK REALIZM VA HAUNTOLOGIYA TAHLILI

*Ochilov Ulug‘bek Sayfulloyevich, Buxoro davlat universiteti dotsenti, (PhD)*

### ANALYSIS OF MAGIC REALISM AND HAUNTOLOGY IN STEPHEN KING’S NOVELS “THE SHINING” AND “DOCTOR SLEEP”

*Ochilov Ulugbek Sayfulloyevich, Associate Professor, Bukhara State University, (PhD)*

### АНАЛИЗ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА И ПРИЗРАКОВ В РОМАНАХ СТИВЕНА КИНГА “THE SHINING” И “DOCTOR SLEEP”

*Очилов Улугбек Сайфуллоевич, доцент Бухарского государственного университета, (PhD)*

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda Stiven Kingning “The Shining” va “Doctor Sleep” romanlarida magik realizm va hauntologiya elementlarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Overluk mehmonxonasi va uning vaqt va haqiqatni buzuvchi xususiyatlari, inson ruhiyati va xotira bilan bog‘liqligi tadqiq etiladi.

**Kalit so‘zlar:** magik realizm, hauntology, Overluk mehmonxonasi, vaqt sikllari, deja vu, inson ruhiyati, xotira, haqiqat va illyuziya.

**Abstract:** This study analyzes the artistic interpretation of magical realism and hauntology elements in Stephen King’s novels “The Shining” and “Doctor Sleep”. The research explores the Overlook Hotel, its properties that disrupt the boundaries of time and reality, and its connection to human psychology and memory. It examines the cyclical movement of time, déjà vu, and hauntological phenomena, revealing how reality and illusion blend.

**Keywords:** magical realism, hauntology, Overlook Hotel, time cycles, déjà vu, human psyche, memory, reality and illusion.

**Аннотация:** В данном исследовании анализируется художественная интерпретация элементов магического реализма и хонтологии в романах Стивена Кинга “The Shining” и “Doctor Sleep”. Рассматривается отель Оверлук, его свойства, нарушающие границы времени и реальности, а также его связь с психикой человека и памятью.

**Ключевые слова:** магический реализм, хонтология, отель Оверлук, временные циклы, дежавю, психика человека, память, реальность и иллюзия.

**KIRISH.** Magik realizm adabiyotda haqiqat va mistika chegaralarini yo‘qotib, kundalik hayot bilan g‘ayritabiyy hodisalarining uyg‘unligini yaratadigan janrlardan biridir. U orqali voqelikning nisbiyligi, vaqt va xotira tushunchalarining o‘zarobog‘liqligi tasvirlanadi. Stephen Kingning “The Shining” va uning davomiyati “Doctor Sleep” romanlari magik realizm tamoyillari asosida

shakllangan bo‘lib, unda real va mistik elementlar bir butun olam sifatida aks ettiriladi. King bu asarlari orqali inson ongi, xotira va ruhiy travmalar orasidagi bog‘liqlikni chuqur tadqiq qiladi. “The Shining” romanida Overluk mehmonxonasi shunchaki jismoniy makon emas, balki vaqt paradigmasini buzadigan, o‘tgan va hozirgi hodisalarining qorishib ketishiga sabab bo‘luvchi sirli joy sifatida namoyon



<https://orcid.org/0000-0003-4481-9969>

e-mail:  
[elnurbeast@gmail.com](mailto:elnurbeast@gmail.com)

bo‘ladi. Mehmonxona ichida vaqt chiziqli harakat qilmaydi, aksincha, o‘tgan voqealar real vaqt ichida yana jonlanib, shaxsiy xotira va ong bilan bog‘lanib ketadi. “Doctor Sleep” romanida esa King ushbu mistik dunyoni yanada chuqurroq o‘rganib, inson ruhiy o‘sish jarayonini va uning o‘z qobiliyatlarini qabul qilish yo‘lini yoritadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Stiven Kingning “The Shining” romani va uning davomiy “Doctor Sleep” asarlari vaqt va haqiqatning o‘zaro bog‘liqligi nuqtayi nazaridan chuqr tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan asarlardan biridir. Overluk mehmonxonasi o‘zining fizik mavjudligidan tashqari, vaqt paradigmaсини бузадиган mistik joy sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mehmonxona ichida vaqt chiziqli emas, balki doimiy ravishda burilish, sinish va qayta takrorlanish holatlariga duch keladi. Bu jarayon esa inson xotirasi, dahshat va ongsizlik bilan bog‘liq hodisalar orqali tasvirlanadi.

Overluk mehmonxonasingning eng asosiy xususiyatlaridan biri – **o‘tgan voqealarning kelajakka singib borishi va real voqelik bilan aralashishi**. Mehmonxona o‘zida ilgari yashagan odamlarning izlarini, ularning xatti-harakatlarini va ruhiy holatini saqlab qolgan holda, hozirgi mehmonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda davom etadi. **Jek Torrensnинг asta-sekin aqldan ozishi ham aynan mehmonxonaning vaqt va makon chegaralarini buzuvchi ta’siri natijasida sodir bo‘ladi**. Uning ongida avvalgi mehmonlar va xizmatchilar bilan suhbatlar yuz beradi, lekin bu shunchaki xayol yoki xotira emas, balki haqiqatning bir shakli sifatida tasvirlanadi. Mehmonxonaning ichki hayoti shunday tuzilganiki, **unda o‘tgan voqealar xotira emas, balki jonlangan voqelik bo‘lib ko‘rinadi**.

Stephen Kingning “The Shining” va uning davomi bo‘lmish “Doctor Sleep” romanlari haqiqat va illyuziyaning qorishib ketishini hamda inson ongingin mistik tajribalar bilan qanday bog‘lanishini ochib beradi. Ushbu asarlarda real va paranormal hodisalar o‘rtasidagi chegaralar asta-sekin yo‘qolib, qahramonlarning idroki haqiqatning yangi ko‘rinishlari bilan to‘qnash keladi. Jek Torrens obrazi orqali King inson ruhiyatining qanday qilib illyuziya va real voqelik o‘rtasidagi chiziqni yo‘qotishini ko‘rsatadi. Mehmonxonaning ta’siri ostida Jek avvaliga kichik ong o‘zgarishlarini sezadi, keyinchalik esa u atrofida sodir bo‘layotgan paranormal hodisalarga mutlaqo tabiiy hol sifatida

qaray boshlaydi. Bu esa uning o‘z ongi va mavjud haqiqatni qanday idrok etishiga katta ta’sir o‘tkazadi[1].

“Doctor Sleep” romanida bu jarayon yanada chuqurroq yoritiladi, chunki unda Jekning o‘g‘li Denni Torrens mistik qobiliyatlarini orqali Overluk mehmonxonasingning ta’siridan qutulishga harakat qiladi. Dennining ekstrasensor sezgilari va uning dunyoni idrok etish usuli otasiniki bilan bog‘liq bo‘lsa-da, u ongi va xotiralarini boshqarish orqali otasining yo‘lidan borishdan qochishga intiladi. King bu jarayonni ong va ruhiyat bilan bog‘liq g‘ayritabiyy hodisalar orqali tasvirlaydi. Denni uchun Overluk mehmonxonasi shunchaki joy emas, balki o‘zining ruhiy travmalari va otasidan meros bo‘lib qolgan dahshat bilan yuzma-yuz kelish manbai bo‘lib xizmat qiladi[2].

Mehmonxonaning mistik ta’siri King tomonidan faqat qahramonlarning shaxsiy ruhiy buzilishlari orqali emas, balki vaqt va makon paradigmasingning buzilishi orqali ham yoritiladi. Overluk mehmonxonasi o‘zining mavjudligini nafaqat hozirgi zamonda, balki o‘tgan va kelajakdagi hodisalar ichida ham saqlab qoladi. Mehmonxonaning turli tarixiy davrlar bo‘ylab sodir bo‘lgan sirli voqealari o‘z xotira qobig‘ida yashashda davom etadi va hozirgi paytda ham faol ta’sir ko‘rsatadi. Kingning tasvirlashicha, Overluk mehmonxonasida vaqt statik holatda emas, balki turli nuqtalardan harakat qiluvchi hodisalar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa haqiqat va illyuziya chegaralarining mutlaqo yo‘qolishiga olib keladi. Mehmonxona turli davrlardagi insonlarning tajribalarini singdirib, o‘zining sirli kuchlarini hozirgi mehmonlarga uzatishda davom etadi[1].

Mazkur tadqiqotda adabiy-tahliliy yondashuv qo‘llanildi.

**NATIJA VA MUHOKAMA.** Stephen Kingning “The Shining” va “Doctor Sleep” romanlarida vaqtning chiziqli ravishda harakatlanishi shubha ostiga olinadi. Overluk mehmonxonasi faqat makon emas, balki vaqt ni o‘ziga singdirgan mistik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Mehmonxonaning muhim xususiyatlaridan biri shuki, undagi vaqt oqimi odatdagidek oldinga emas, balki ba’zan teskari yo‘nalishda harakatlanadi. Ushbu holat hauntologiya (qarovsiz qolgan o‘tmish tasvirlari) tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, mehmonxona o‘tmish voqealarini nafaqat eslaydi, balki ularni qayta jonlantirish xususiyatiga ham ega.

Haqiqat va xotiraning bunday qorishib ketishi roman qahramonlarini reallik chegaralaridan chetga chiqarib yuboradi[3]. King o‘z asarlarida deja vu hodisasini nafaqat metafizik tushuncha sifatida, balki inson ruhiy tajribasining muhim qismi sifatida ham ochib beradi. Denni shayning qobiliyati orqali otasining avvalgi tajribalarini his qiladi, bu esa xuddi u ham avval ushbu hodisalarni boshdan kechirganiday tasvirlanadi. Bu jarayon inson xotirasi, vaqt va haqiqatni anglash tushunchalarini shubha ostiga qo‘yadi. King ushbu elementlarni qo‘llash orqali Overluk mehmonxonasi nafaqat ruhiy dahshat manbai, balki vaqt tushunchasini buzadigan va inson ongini o‘zgartiradigan metafizik makon sifatida talqin qiladi. Mehmonxona ichida vaqtning teskari harakati shuni anglatadiki, undagi har bir hodisa shunchaki o‘tmishning yodgorligi emas, balki hozir ham sodir bo‘layotgan jarayon sifatida qabul qilinadi. Stephen Kingning “*The Shining*” romanida Overluk mehmonxonasi oddiy bino yoki jismoniy makon bo‘lishdan tashqari, o‘ziga xos **metafizik fenomen** sifatida tasvirlanadi. Bu mehmonxona shunchaki fon emas, balki mustaqil ongga ega bo‘lgan, vaqt va makon chegaralaridan mustasno turgan sirli entitetdir. Overluk mehmonxonasi o‘z ichiga o‘tmish va hozirgi zamonni jamlagan holda, real va irreal voqeliklarni o‘zaro bog‘laydigan **paranormal maydon** sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan mehmonxona **ontologik noaniqlikka ega joy** bo‘lib, unda har qanday hodisa mutlaq haqiqat sifatida qabul qilinadi.

“*Doctor Sleep*” romani insonning shaxsiy identifikatsiyasi va ruhiy o‘sish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda magik realizm elementlari muhim rol o‘ynaydi. Asarda Denni Torrens qahramonining ichki kechinmalari, travmatik tajribalari va g‘ayritabiyy qobiliyatları orqali insonning o‘zligini anglash murakkab jarayon sifatida tasvirlanadi. Bu jarayon davomida magik realizm real va metafizik tajribalarni birlashtirib, inson ongi va ruhiy transformatsiyasini ochib beradi. King asarda inson ongining turli holatlarini, tush va haqiqat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi va haqiqatning subyektiv talqin qilinishi orqali voqelikni magik tajribalar bilan boyitadi.

“*The Shining*” va “*Doctor Sleep*” romanlarida King magik realizm orqali haqiqat va illyuziyaning uyg‘unligini yaratadi. Overluk mehmonxonasi o‘ziga xos hauntologik makon bo‘lib, unda o‘tgan va kelajak hodisalari real vaqt ichida qayta jonlanadi.

Jek Torrens obrazi orqali King inson ruhiyatining qanday qilib illyuziya va real voqelik o‘rtasidagi chiziqni yo‘qotishini ko‘rsatadi. “*Doctor Sleep*” romanida esa Denni Torrens ushbu jarayonni o‘zgacha idrok etib, o‘zining ruhiy travmalaridan xalos bo‘lish yo‘lini topadi.

Mehmonxonaning vaqt va makon chegaralarini buzuvchi xususiyatlari magik realizmning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Undagi hodisalar oddiy xotira emas, balki real voqelikning bir shakli sifatida aks ettiriladi. Dennining shining qobiliyati orqali vaqt paradigmasi o‘z o‘rnini mistik tajribaga bo‘shatadi. Abra Stoun obrazi esa ushbu tajribalarni o‘rganish va qabul qilish jarayonida Denniga yordam beradi. Shuningdek, King bu romanlarda hauntologiya tushunchasidan foydalanib, o‘tgan voqealarning hozirgi zamonga ta’sirini yoritadi. Overluk mehmonxonasing ruhiy ta’siri Jek va Denni obrazlari orqali yoritilib, inson ongi va xotirasi real vaqt ichida qanday namoyon bo‘lishi mumkinligi tasvirlanadi.

**XULOSA.** “*The Shining*” va “*Doctor Sleep*” romanlari magik realizm va hauntologiya nazariyalarining adabiyotdagi yorqin namunalari bo‘lib, unda vaqt va haqiqat chegaralari yo‘qotiladi. Overluk mehmonxonasi jismoniy makon bo‘lishdan tashqari, inson xotirasi va ruhiy tajribalarining mistik markaziga aylanadi. King bu asarlari orqali inson ruhiyati, xotira va haqiqatni qabul qilish jarayonini chuqur tadqiq etadi. King mistik elementlarni inson ruhiy o‘sishi bilan bog‘lab, haqiqat va xotiraning qanday ishlashini badiiy uslubda ifodalaydi. Ushbu romanlar King ijodidagi magik realizmning eng yorqin ko‘rinishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. King, Stephen. *The Shining*. Shining, 421.pp 431, 421, 22, 58-61.
2. King, Stephen. *Doctor Sleep*. Scribner, 2013, pp 278-281, 419, 312-215,146,187-190, 215-218, 215, 278, 312-315.
3. Jahon adabiyoti, 2015/3, pp 422.
4. Jung, n. *Man and His Symbols*. Doubleday, 1964, pp 104.
5. Ochilov, U. S. Realizm oqiminig bir qismi bo‘lgan magik realizm va uning tamoyillari. //European Journal of Interdisciplinary Research and Development 13 (2023): 208-211.